



UDK:316.654.3:303.62

Nigargul SARIBAYEVA,

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti,
O'zbekiston milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi*

O'zJOKU dotsenti, PhD A.Kayumov taqrizi asosida

MODERN METHODS OF ASSESSING AND ANALYZING PUBLIC OPINION IN CONTEMPORARY SOCIETY

Annotation

This article highlights the methodological foundations of assessing and analyzing public opinion in the context of modern society, their practical application, as well as the pressing issues arising in this process. It also provides methodological recommendations for conducting a deeper analysis of public opinion in the conditions of our country.

Key words: Public opinion, sociological analysis, content analysis, focus group, artificial intelligence, social networks, mass media, political communication.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ И АНАЛИЗА ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В данной статье освещаются методологические основы оценки и анализа общественного мнения в условиях современного общества, их практическое применение, а также актуальные проблемы, возникающие в этом процессе. Также приводятся методические рекомендации для более глубокого анализа общественного мнения в условиях нашей страны.

Ключевые слова: Общественное мнение, социологический анализ, контент-анализ, фокус-группа, искусственный интеллект, социальные сети, средства массовой информации, политическая коммуникация.

ZAMONAVIY JAMIYATDA JAMOATCHILIK FIKRINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH USULLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy jamiyat sharoitida jamoatchilik fikrini baholash va tahlil qilishning metodologik asoslari, ularning amaliy qo'llanilishi hamda bu jarayonda yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar yoritiladi hamda mamlakatimiz sharoitida jamoatchilik fikrini chuqurroq tahlil qilish uchun metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Jamoatchilik fikri, sotsiologik tahlil, kontent-analiz, fokus-guruh, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, siyosiy kommunikatsiya.

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda jamoatchilik fikrining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bugungi globalashuv, raqamli transformatsiya va axborot oqimining yuqori sur'atlarda kechayotgan sharoitida aholining ijtimoiy ongidagi kayfiyatlar, munosabatlar, qarashlar va baholashlarning o'zgarishini aniqlab borish nafaqat ilmiy izlanishlar, balki davlat boshqaruvi, siyosiy rejalashtirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim vosita sifatida qaralmoqda. Shu sababli jamoatchilik fikrini o'lchash va tahlil qilishning samarali uslublarini ishlab chiqish, mavjud metodikalarni zamonaviy shart-sharoitlarga moslashtirish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jamoatchilik fikrini o'rganish ijtimoiy fanlar, xususan, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixologiya va kommunikatsiya sohalarida mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Jumladan, G. Tarde, V. Pareto, M. Vaber, hamda zamonaviy tadqiqotchilardan Yu. Habermas, E. Noelle-Neumannlar jamoatchilik fikri shakllanishining nazariy asoslarini ishlab chiqdilar. Masalan, Y. Habermas o'zining "Jamoatchilik fikrining strukturaviy transformatsiyasi" asarida jamoatchilik fikrini ijtimoiy muhokama maydoni sifatida tahlil qilib, uning shakllanishi va inqiroz jarayonlarini chuqur tahlil qilgan[4].

Zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikrini o'lchash va tahlil qilish usullarining takomillashuvi natijasida ijtimoiy so'rovlar, kontent-tahlil, eksperiment va fokus-guruh kabi zamonaviy metodlar keng qo'llanilmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida o'tkazilayotgan yirik sotsiologik so'rovlar

jamoatchilik fikrining muayyan muammolarga bo'lgan munosabatini tizimli ravishda o'rganish imkonini bermoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'ylab 80 dan ortiq mamlakatda 1200 dan ziyod jamoatchilik fikri so'rovlari o'tkazilgan.

Ushbu tadqiqotda jamoatchilik fikri tushunchasining mazmuni, o'lchash usullari hamda uning ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni tahlil qilingani bilan birga, jamoatchilik fikrini baholashda uchraydigan dolzarb muammolar va ularni hal etish yo'llari ham ko'rib chiqilgan.

Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikrini o'lchash va tahlil qilishda qo'llanilayotgan asosiy ilmiy-uslubiy yondashuvlar ko'rib chiqiladi, ularning nazariy-metodologik asoslari, amaliy afzallik va cheklovlari tahlil qilinadi. Xususan, sotsiologik so'rovlar, kontent-analiz, fokus-guruh usullari bilan bir qatorda raqamli tahlil texnologiyalarining o'rni, ular orqali jamoatchilik fikrining real ko'rinishlarini qanday aniqlash mumkinligi, shuningdek, ushbu tahlillarning ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga ta'siri yoritib beriladi. Maqolaning dolzarbligi hamda ilmiy yangiligi shundaki, u zamonaviy axborot muhiti sharoitida jamoatchilik fikrining shakllanishi, o'lchanishi va unga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini tizimli tarzda yoritadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamoatchilik fikri sotsiologiya, siyosatshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi va psixologiya sohalarida keng o'rganilgan multidissiplinar tushuncha hisoblanadi. Ushbu tushuncha ilk bor XVIII-XIX asrlarda Yevropa jamiyatlarida shakllangan bo'lib, u fuqarolik

jamiyatining rivojlanishi, matbuot erkinligi va siyosiy islohotlar bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan. Fransuz faylasufi Jan-Jak Russo va nemis faylasufi Yürgen Habermasning asarlari jamoatchilik fikrining nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Habermasning "Jamoatchilik sohasining strukturaviy transformatsiyasi" nomli asarida jamoatchilik fikri fuqarolik jamiyati va ommaviy kommunikatsiya o'rtasidagi muloqot maydoni sifatida talqin etiladi.

XX asrning o'rtalariga kelib, AQSh va Yevropada jamoatchilik fikrini o'lchash bo'yicha empirik yondashuvlar jadal rivojlandi. Jeyms Brais, Valter Lipman, Jorj Gallup kabi olimlarning ishlari jamoatchilik fikrining amaliy tahlilini asoslab berdi. Ayniqsa, Gallup tomonidan ishlab chiqilgan so'rovnoma metodikasi bugungi kungacha jamoatchilik fikrini o'lchashning eng ishonchli usullaridan biri hisoblanadi. Ular o'z tadqiqotlarida ommaviy so'rovlar orqali aholining ijtimoiy-siyosiy kayfiyatini aniqlash, saylovoldi prognozlarini tuzish va ijtimoiy muammolarga nisbatan munosabatni o'rganishga e'tibor qaratganlar.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi jamoatchilik fikrini o'rganishda yangi metodologik yondashuvlarni shakllantirdi. Big data tahlili, sun'iy intellekt algoritmlari va natural tilni qayta ishlash texnologiyalari orqali millionlab foydalanuvchi xabarlarini real vaqt rejimida tahlil qilish imkoni paydo bo'ldi. Tadqiqotchilar ushbu yangi metodlarni an'anaviy sotsiologik usullarga nisbatan tezkorlik, dinamiklik va ijtimoiy kayfiyatlardagi nozik o'zgarishlarni aniqlash qobiliyati bilan ajralib turishini ta'kidlashgan.

Biroq, yangi texnologik yondashuvlar bilan bog'liq bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, axborotning haqiqatga mosligi, botsignallar (ya'ni sun'iy faol foydalanuvchilar) aralashuvi, etik muammolar, maxfiylik va ma'lumotlar himoyasi masalalarini dolzarb bo'lib qolmoqda.

Germaniyalik faylasuf J.Habermas jamoatchilik fikrini "jamoatchilik maydoni" kontseptsiyasi orqali chuqur tahlil qilgan (4). Habermasning fikricha, demokratik jamiyatda ochiq muloqot, erkin fikr almashinuvi asosiy vazifa hisoblanadi. Bu jarayon siyosiy va ijtimoiy qarorlarning qabul qilinishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, Noelle-Neumann "Jimlik spiralsi" nazariyasini ishlab chiqib, jamoatchilik fikrining ijtimoiy psixologik jihatlarini yoritadi (5). Uning ta'kidlashicha, odamlar ko'pchilik fikridan farq qiluvchi o'z qarashlarini yashirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy bosimlardan qochishga harakat qiladi. Zamonaviy tadqiqotchi Glynn va boshqalar jamoatchilik fikrining ko'p qirrali mohiyatini o'rganib, uning ijtimoiy ta'sir kuchini keng doirada tahlil qiladi (6). Ularning ishlari jamoatchilik fikrini o'lchash va tushunishda amaliy vositalarni taklif etadi.

Metodologik jihatdan, Babbie jamoatchilik fikrini o'rganishda so'rovnomalari, eksperimentlar va kontent-tahlil kabi usullarni batafsil ko'rib chiqadi (7). Shu bilan birga, Krippendorff kontent-tahlil metodologiyasini yoritib, media matnlari va ijtimoiy tarmoqlardagi fikrlarni tizimli o'rganish imkoniyatlarini ochib beradi (8). Pew Research Center va World Values Survey kabi yirik tadqiqot markazlari jamoatchilik fikrining zamonaviy o'zgarishlari va ishonch darajasini ko'rsatib beruvchi keng qamrovli ma'lumotlarni taqdim etadi (9; 10). Bu tadqiqotlar jamoatchilik fikrining global va mahalliy kontekstlarda qanday shakllanishini kuzatishda muhim manba hisoblanadi.

Ijtimoiy harakatlar va ularning jamoatchilik fikriga ta'siri ham ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Tilly va Castells ijtimoiy tarmoqlar va internet davrida harakatlarning yangi shakllarini tahlil qilib, ularning fikr almashinuvidagi o'zni haqida fikr bildirgan (11; 12). Jamoatchilik fikri va unga

ishonch munosabatlari borasida Karpov nazariy va empirik tadqiqotlar orqali zamonaviy jamiyatlardagi hokimiyat va ishonch munosabatlarini tahlil qilgan (13). Bu ishlar jamoatchilik fikrining ijtimoiy boshqaruvdagi o'zini yanada mustahkamlaydi. Zamonaviy texnologiyalar va "katta ma'lumotlar" (big data) jamoatchilik fikrini o'lchash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Hazapov va Moya ushbu sohada innovatsion yondashuvlarni, shuningdek, axloqiy masalalarni ko'rib chiqqan (14; 15). Ularning fikricha, big data tahlillari ijtimoiy fikrni chuqur va aniqroq tahlil qilishga yordam beradi, biroq maxfiylik va etik masalalar ham dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikrini o'lchash va tahlil qilishda qo'llanilayotgan uslubiy yondashuvlar tizimli tarzda tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida kombinatsiyalashgan (mixed-methods) yondashuv qo'llanildi, ya'ni sifat va miqdoriy usullar integratsiyalashgan holda olib borildi. Bu esa mavzuga kompleks yondashish, mavjud tahlil usullarining nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq ochib berish imkonini berdi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy metodlar qo'llanildi:

Sotsiologik so'rovlar

An'anaviy va onlayn shaklda tashkil etilgan ijtimoiy so'rovlar orqali jamoatchilik fikrining aniq indikatorlari aniqlanishiga e'tibor qaratildi. So'rov savollari Likert shkalasi asosida ishlab chiqildi. Respondentlar tasodifiy tanlash (random sampling) prinsipi asosida tanlandi. So'rov O'zbekistonning urban va rural hududlarida, yosh, jins, ta'lim darajasi va ijtimoiy maqom jihatidan farqlanuvchi respondentlar o'rtasida o'tkazildi.

Kontent-analiz

Tahlil qilinayotgan mavzu bo'yicha O'zbekiston va xorijiy ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda (Telegram, Facebook, X) chop etilgan materiallar kontent-analiz qilindi. Matnli axborotdan asosiy mavzular, ijtimoiy hissiyotlar, ijobiy-salbiy munosabatlar (sentiment analysis) aniqlandi. Bu jarayonda natural tilni qayta ishlash algoritmlaridan, xususan, avtomatlashtirilgan kalit so'zlar aniqlash va mavzular bo'yicha guruhlash texnologiyalaridan foydalanildi.

Fokus-guruh muhokamalari

Turli yoshdagi, ijtimoiy mavqedagi va kasbiy yo'nalishdagi ishtirokchilar bilan interaktiv muhokamalar tashkil etildi. Fokus-guruh metodikasi jamoatchilik fikrining chuqur, kontekstual sabablari va subyektiv talqinlarini aniqlashga xizmat qildi. Muhokamalar audioyozuvga olinib, so'ngra tematik tahlil qilindi.

Big data tahlili

Ijtimoiy tarmoqlardagi ochiq axborotlar, postlar va izohlar tahlil qilinib, real vaqt rejimida jamoatchilik kayfiyatlari o'zgarishi kuzatildi. Bu jarayonda Python dasturlash tilidan foydalanilib, maxsus kutubxonalar (BeautifulSoup, Pandas, Scikit-learn) yordamida ma'lumotlar to'plandi va tahlil qilindi. Shuningdek, vizualizatsiya uchun Tableau va Power BI platformalari ishga tushirildi.

Tadqiqot etikasi

Barcha metodik jarayonlar milliy va xalqaro tadqiqot etikasi talablariga mos olib borildi. Respondentlarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiy saqlandi, ularning roziligi asosida ma'lumotlar yig'ildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikri ko'p omilli, dinamik va platformalararo shakllanuvchi murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib qolmoqda. Turli metodlar orqali to'plangan ma'lumotlar qiyosiy va kontekstual tahlil qilindi.

1. Sotsiologik so'rov natijalari

O'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar natijasiga ko'ra, ishtirokchilarning 68 foizi o'zining ijtimoiy-siyosiy voqeliklar haqidagi qarashlarini ommaviy axborot vositalaridan emas, balki ijtimoiy tarmoqlardan shakllantirishini bildirgan. Respondentlarning 54 foizi esa mamlakatda olib borilayotgan islohotlarga ijobiy munosabat bildirgan bo'lsa, 23 foizi ehtiyotkorlik bilan yondashgan. Ushbu raqamlar jamiyatdagi kayfiyatlarni anglashda ommaviy kommunikatsiya vositalarining ta'siri yetakchi rol o'ynayotganini ko'rsatadi.


2. Kontent-analiz natijalari

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda jamoatchilik fikriga oid materiallarning kontent-analizi shuni ko'rsatdiki, jamoaviy hissiyotlar (kollektiv emotsiyalar) ko'pincha muayyan ijtimoiy hodisalar (masalan, siyosiy

nutqlar, islohotlar, noroziliklar) ortidan kuchayadi va tezda ommaviy muhokamaga aylanadi. Sentiment-tahlil natijalariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda jamiyat muammolariga doir salbiy munosabatlar ijobiyliklariga nisbatan 1,6 barobar ko'p bo'lgan.

3. Fokus-guruh muhokamalari

Fokus-guruhlar orqali aniqlanishicha, jamoatchilik fikrining shakllanishi nafaqat axborot manbai, balki shaxsiy hayot tajribasi, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy muhit bilan ham chambarchas bog'liq. Ishtirokchilar orasida ijtimoiy tarmoqda bildirilgan fikrlarni "real jamoatchilik fikri" deb qabul qilmaslik holatlari ham kuzatildi. Bu esa sun'iy yoki manipulyativ axborot oqimlarining mavjudligi xavfini ko'rsatadi.



1-grafik

4. Big data tahlili

Ijtimoiy tarmoqlardan olingan katta hajmdagi ma'lumotlar asosida tuzilgan vizual grafiklar va semantik xaritalar jamiyatda qayd etilayotgan eng dolzarb mavzular — ishsizlik, narx-navo, ta'lim sifati, ijtimoiy adolat kabi sohalarga doir munosabatlar atrofida shakllanayotganini ko'rsatdi. Tahlillar shuni anglatadiki, bu mavzular jamiyatdagi barqarorlik va ishonch ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

5. Munozara

Olingan natijalar zamonaviy jamoatchilik fikri turli darajadagi kommunikatsion platformalarda shakllanishini va bu jarayon algoritmlar, emotsional rezonans va muqobil axborot oqimlari bilan boshqarilishini ko'rsatmoqda. Shu bois, mavjud metodlar — an'anaviy so'rovnomalar va zamonaviy raqamli tahlil vositalari — bir-birini to'ldiruvchi sifatida qaralishi lozim. Tadqiqot, shuningdek, ijtimoiy media orqali jamoatchilik fikri sun'iy ravisha uo'naltirilishi mumkinligini ko'rsatadi, bu esa raqamli savodxonlik va media kritikasi darajasini oshirish zaruriyatini yuzaga chiqaradi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikrini o'lchash va tahlil qilish masalasi nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy-siyosiy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda olib borilgan ko'p metodli (mixed-methods) tahlillar natijalariga tayangan holda bir nechta muhim xulosalarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, jamoatchilik fikri — bu doimiy o'zgarishda bo'ladigan, kontekstual va ko'p omilli ijtimoiy hodisadir. U jamiyat a'zolarining muayyan masala, hodisa yoki siyosiy jarayonlarga bo'lgan munosabatini ifoda etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bu munosabatlar asosan ijtimoiy axborot manbalari — ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanadi. Shuningdek, shaxsiy tajriba, madaniy an'analar va axborotni qabul qilish mexanizmlari ham jamoatchilik fikriga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, jamoatchilik fikrini o'lchashda qo'llanilayotgan usullar o'zaro uyg'unlashtirilgan holda qo'llanganda eng samarali natijalarni beradi. An'anaviy sotsiologik usullar (so'rovnomalar, intervyular, fokus-guruhlar)

orqali jamiyatdagi umumiy tendensiyalar va motivatsiyalar aniqlanadi. Raqamli tahlil usullari esa ushbu fikrlarning real vaqt rejimida qanday shakllanishini, dinamikasini va ko'lamini tahlil qilish imkonini beradi. Bu ikki yondashuvni integratsiyalash jamiyatdagi kayfiyatlarni uanada aniq va chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, jamoatchilik fikrini sun'iy ravishda shakllantirish va manipulyatsiya qilish xavfi, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda sezilarli darajada yuqori. Algoritmik filtrlash, "eko-kameralar" (echo chambers) va "filter bubbles" kabi hodisalar jamiyatda fikrlar xilma-xilligini pasaytirib, bir tomonlama axborot oqimini kuchaytiradi. Bu holat esa jamiyatdagi ijtimoiy parokandalik, noto'g'ri qarorlar va ishonch inqiroziga olib kelishi mumkin. Shu bois, jamiyatda raqamli savodxonlik darajasini oshirish, ommaviy axborot vositalarida ochiqlik, shaffoflik va faktlarga asoslanganlikni ta'minlash jamoatchilik fikrining sog'lom rivojlanishi uchun muhim omillardan biridir.

To'rtinchidan, O'zbekiston tajribasi misolida aytish mumkinki, jamoatchilik fikrini o'rganishga oid ilmiy-uslubiy asoslar endigina shakllanib bormoqda. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar, jamiyatdagi ochiqlik siyosati va sotsiologik tadqiqotlarga bo'lgan e'tibor ortib borayotgani ushbu sohaning yanada rivojlanishiga imkon yaratadi. Biroq, bu yo'nalishda xalqaro standartlarga mos metodologiyalarni jori qilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va mustaqil tahlil institutlarini qo'llab-quvvatlash zarur.

Nihoyat, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik fikrini o'lchash va tahlil qilish — bu faqatgina jamiyatdagi kayfiyatni aniqlash vositasi emas, balki davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar qabul qilish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Shu sababli, bu sohada ilmiy tadqiqotlar doirasini kengaytirish, uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish va tahlil natijalarini siyosiy va ijtimoiy amaliyotga tatbiq qilish hozirgi zamon sotsiologiyasi va siyosatshunosligi oldida turgan ustuvor vazifalardanidir.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev Q. Jamoatchilik fikri: nazariy-metodologik asoslari va rivojlanish tendensiyalari. – Toshkent: “Fan”, 2020.
2. Bahromov A. Jamoatchilik fikrini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni. // “Ijtimoiy fikr” jurnali, №1, 2022. – B. 25–31.
3. Dehqonov N. Jamoatchilik fikri va uning davlat boshqaruvidagi o‘rni. – T.: TDYUU, 2021.
4. Habermas, J. (1989). The Structural Transformation of the Public Sphere: An Inquiry into a Category of Bourgeois Society. Cambridge: MIT Press.
5. Noelle-Neumann, E. (1993). The Spiral of Silence: Public Opinion – Our Social Skin. University of Chicago Press.
6. Glynn, C. J., Herbst, S., Lindeman, M., O’Keefe, G. J., & Shapiro, R. Y. (2018). Public Opinion (3rd ed.). Routledge.
7. Babbie, E. (2020). The Practice of Social Research (15th ed.). Cengage Learning.
8. Krippendorff, K. (2018). Content Analysis: An Introduction to Its Methodology (4th ed.). Sage Publications.
9. Pew Research Center. (2023). Public Trust in Government: 1958–2023. Retrieved from <https://www.pewresearch.org>
10. World Values Survey (2022). Wave 7 (2017–2022) Findings and Insights. Retrieved from <https://www.worldvaluessurvey.org>
11. Nazarov Sh. Jamoatchilik fikrini o‘rganishda "katta ma'lumot" texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. // “Innovation sosiologiya” jurnali, №2, 2023. – B. 17–23.
12. Moya, A. (2018). Big Data and Public Opinion: Analytical Possibilities and Ethical Challenges. Journal of Digital Sociology, 6(1), 45–62.